O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA ISTIQBOLLI REJALARI

Ilmiy rahbar: **Yarmatov Sharofiddin Choriyevich**
Iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekani
Ismoilov Atxam Ergashboy o'g'li
Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti Jahon iqtisodiyoti va Xalqaro iqtisodiy munosabatlar ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi
E-mail: atxam20050413@gmail.com
Tel:+998954180413

Annotatsiya. *Mazkur maqolada global miqyosda muhim ahamiyatga ega bo 'lib borayotgan ekologik xavf xatarlar sharoitida iqtisodiy rivojlanishning barqaror shakli bo'lgan yashil iqtisodiyot va uning mamlakatimizda rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shu bilan birga yurtimizda bugungi kunda olib borilayotgan islohotlar tahlilini ham qamrab oladi.*
Kalit so'zlar*. Yashil iqtisodiyot, qayta tiklanuvchi energiya (QTE), yashil investitsiyalar, iqlim o'zgarishi.*

Kirish. "Yashil" iqtisodiyot konsepsiyasi tarafdorlarining fikricha, mavjud iqtisodiy tizim mukammal emas va bir qator kamchiliklarga ega. Buni muntazam inqirozlar va bozor faoliyatidagi uzilishlar tasdiqlaydi. "Yashil" iqtisodiyot tarafdorlarining fikricha, bu tizim tabiatan isrofgarchilikka asoslangan. U odamlar, ayniqsa, ba'zi guruhlar hayotida ma'lum yaxshilanishlarga olib kelgan bo'lsa-da, uning faoliyati sezilarli salbiy oqibatlarga olib keladi. Ular orasida ekologik muammolar, tabiiy resurslarning kamayishi, keng tarqalgan qashshoqlik, chuchuk suv, oziq-ovqat va energiya tanqisligi, odamlar va mamlakatlar o'rtasidagi tengsizlikni ajratib ko'rsatish mumkin.

Tahlil va natijalar. Ekologik xavf-xatar omillarining barchasi kelajak avlodlar uchun xavf tug'diradi. Iqtisodiyotning hozirgi modelini "jigarrang" deb atashadi. 1934- yildayoq oddiy YaIM konsepsiyasi muallifi Saymon Kuznets AQSH senatorlari oldida so'zga chiqib, shunday ogohlantirgan edi: "Millat farovonligi milliy daromad bilan yetarlicha o'lchanishi mumkin emas". Atrof-muhit bilan bog'liq soliq tushumlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati Meksikada 0,06% dan (2014) 4,17% gacha (2020) oshgan. Yevropa Ittifoqi davlatlarida (Daniya, Finlyandiya, Norvegiya, Buyuk Britaniya, Germaniya va Gollandiya) 2014-yili atrof-muhit bilan bog'liq ekologik soliqlar1,8%dan 3,1%gacha (2020) oshgan[1].

Hozirgi vaqtda milliy iqtisodiyot ustuvor darajada tabiiy kapitalni intensiv iste'mol qilmoqda, bu o'z vaqtida atrof-muhitni ifloslanishiga, suv tanqisligiga olib kelmoqda. Korxonalarda

[1] Ismanov.I., Bo 'taboyev.M. Yashil iqtisodiyot: Mohiyat, tushunchasi va rivojlanish tamoyillari / Qo 'qon universiteti xabarnomasi, 2025. – B 97

ishlab chiqarish vositalarining 80-85% eskirgan, bir birlik yalpi mahsulot ishlab chiqarishda energiya normadan ko'p sarflanmoqda[2].

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda quyidagi muammolar mavjud: ***Suv resurslarining tanqisligi***. O'zbekistonda 8 mingta suv qudug'i mavjud, lekin ularning 2600 tasi qurib qolgan. Suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va suv tejash texnologiyalari yordamida sug'orish tizimlarini takomillashtirish zarur. ***Yer resurslarining degradatsiyasi.*** O'zbekistonda 20,3 million gektar yer bo'lib, shundan 3-4 mln gektar yerlarda qishloq xo'jaligi ekinlari bilan band[3]. Keyingi yillarda yerlar cho'llashishi, quruqlashishi (suv qochishi) oqibatida 70-80% yerlar sho'rlashib, hosildorlik pasayib bormoqda. Masalan, 1 gektar yerdagi paxta hosili 17-20%, bug'doy 13- 14%ga kamayib ketgan. ***Transport sohasining salbiy ta'siri.*** Transport sanoatining rivojlanishi infrastrukturani yaxshilagan bo'lsa-da, u atmosferaga parnik gazlari chiqarishini ko'paytirmoqda, iqlim o'zgarishiga ta'sir qilmoqda va aholi salomatligiga zarar yetkazmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Iqlim o'zgarishi, suv resurslarining cheklanganligi va energiya xavfsizligi muammolari iqtisodiy rivojlanishning yangi modelini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirdi. Ushbu modelda iqtisodiy samaradorlik ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas'uliyat bilan uyg'unlashadi.

O'zbekiston energetika tizimida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. 2023-yil holatiga ko'ra, mamlakatda elektr energiyasi ishlab chiqarishning qariyb 10 foizi qayta tiklanuvchi manbalar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, 2030-yilga borib bu ko'rsatkichni 25–30 foizga yetkazish rejalashtirilgan[4]. Quyosh va shamol elektr stansiyalariga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 2020–2024 yillarda bir necha barobarga oshdi.

Ko'rsatkichlar	QTE quvvati (MW)	Yashil investitsiyalar	Ish o'rinlari
2020	800	0.8 mlrd $	12 ming
2022	1700	2.1 mlrd $	25 ming
2024	3200	5.3 mlrd $	47 ming

1 – jadval. Yashil iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha yillar kesimida oshib borishi

Ushbu ko'rsatkichlar yashil iqtisodiyotning bandlik va investitsion jozibadorlikka bevosita ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Ijtimoiy nuqtayi nazardan, yashil iqtisodiyot aholining hayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Qayta tiklanuvchi energiya loyihalari, ayniqsa, qishloq hududlarida yangi ish o'rinlarini yaratib, hududlararo iqtisodiy tafovutlarni

[2]Ismanov, I. N., Muminova, E. A., Rasulova, S. X., & Shabaltina, L. V. (2024). INFLUENCE OF FINANCING INNOVATIONS ON INFORMATION SYSTEMS MANAGEMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. Proceedings on Engineering, 6(3), 1145-1152

[3] Abdullayev.S. O'zbekistonda 23 mln gektar qishloq yerlarining elektron xaritasi yaratildi // https://qalampir.uz/

[4] Braga, J. P., & Ernst, E. (2023). Financing the green transition. The role of macro-economic policies in ensuring a just transition. Frontiers in Climate, 5// https://doi.org/10.3389/fclim.2023.11927062

qisqartirish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, energiya samaradorligini oshirish orqali uy xo‘jaliklarining energiya xarajatlari kamaymoqda[5].

Xulosa. Dunyo bo ‘ylab sodir bo ‘layotgan global ekologik inqirozlar natijasida insonlarning hayot kechirish sifati yomonlashib borayotgan bir davrda dunyo davlatlari yashil iqtisodiyot konsepsiyasini kechiktirmay o ‘tishi muhim sanaladi. Atrof-muhit, flora va fauna olamining yomonlashuvi, global isish va plastiklarning ko ‘payishi insonlar bilan bir qatoda iqtisodiyotning agrar sohasiga va xizmat ko ‘rsatishga qattiq ta’sir ko ‘rsatadi. Qazilma resruslarining betartib va keskin “yulib” olinishi esa sanoat tramoqlarini qisqarishiga olib keladi. Mamlakatimizda ham “yashil” iqtisodiyot tarmoqlarini kengaytirish kun tartibida turganligi bor gap. Biroq mazkur masalalarga holisona e’tibor berilmas ekan jarayonlarning samaradorligi sustlashishi keying avlod uchun kata muommolarni yuzaga ko ‘rsatishi turgan gap. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish iqtisodiy o‘sishning yangi manbalarini shakllantirmoqda. Samarali davlat siyosati, institutsional islohotlar va xalqaro hamkorlik sharoitida yashil rivojlanish modeli mamlakatning uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismanov.I., Bo‘taboyev.M. Yashil iqtisodiyot: Mohiyat, tushunchasi va rivojlanish tamoyillari / Qo ‘qon universiteti xabarnomasi, 2025.
2. Ismanov, I. N., Muminova, E. A., Rasulova, S. X., & Shabaltina, L. V. (2024). INFLUENCE OF FINANCING INNOVATIONS ON INFORMATION SYSTEMS MANAGEMENT IN THE DIGITAL ECONOMY. Proceedings on Engineering, 6(3),
3. Abdullayev.S. O‘zbekistonda 23 mln gektar qishloq yerlarining elektron xaritasi yaratildi // https://qalampir.uz/
4. Braga, J. P., & Ernst, E. (2023). Financing the green transition. The role of macro-economic policies in ensuring a just transition. Frontiers in Climate, 5// https://doi.org/10.3389/fclim.2023.11927062
5. Tang, D., & Solangi, Y. A. (2023). Fostering a Sustainable Energy Future to Combat Climate Change: EESG Impacts of Green Economy Transitions. Processes, 11(5), 1548. // https://doi.org/10.3390/pr11051548

[5] Tang, D., & Solangi, Y. A. (2023). Fostering a Sustainable Energy Future to Combat Climate Change: EESG Impacts of Green Economy Transitions. Processes, 11(5), 1548. // https://doi.org/10.3390/pr11051548